

BADIIY TARJIMA VA JARAYONDA YUZAGA KELUVCHI MUAMMOLAR

Quvvatova Mehribon Usan qizi
O'zDJTU, Tarjimonlik fakulteti talabasi
quvvatovamehribon03@gmail.com
Ilmiy rahbar: **Xodjayeveva S.S.**

Annontatsiya: Ushbu maqolada badiiy tarjima va tajima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar haqida batafsil ma'lumotlar, misollar va muammolarni atroflicha o'rganib ularga yechimlar beriladi.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, nasriy tarjima, she'riy tarjima, lisoniy farq, ekvivalentlik, madaniyatlararo farqlar.

Abstract: This article provides detailed information, examples and solutions to the problems that arise in the process of literary translation and editing.

Keywords: literary translation, prose translation, poetic translation, linguistic difference, equivalence, intercultural differences.

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация, примеры и решения проблем, возникающих в процессе художественного перевода и редактирования.

Ключевые слова: художественный перевод, прозаический перевод, поэтический перевод, языковое различие, эквивалентность, межкультурные различия.

Bugungi kunda tarjimaning ahamiyati haqida gapirish quyoshning ahamiyatini tushuntirishday gap bo'lib qoldi. Ya'ni quyoshsiz yer yuzida hayot bo'lmagani kabi, tarjimasiz turli xalqlarning o'zaro aloqasi bo'lmaydi, o'zaro aloqasiz esa taraqqiyot bo'lmaydi. "Boshqa xalqlar hayotidan voqif bo'lmaslik, g'ofillik milliy mahdudlikka olib keladi". Shuning uchun ham tarjimaga xalqlarni bir-biriga bog'lovchi halqa, madaniyatni rivojlantiruvchi va boyituvchi vosita, o'zaro hamkorlik va hamjihatlikka asos soluvchi ko'priq deb qaraladi. Tarjimonlarni esa shu ko'priq va halqalarni quruvchi mohir ustalar desak mubolag'a bo'lmaydi.

Amerika tarjimashunosi S.Bassnett-Makgayr¹ xonim "Tarjimon avvalo o'quvchi, u ma'onini talqin etuvchi o'quvchi", deb yozadi. Lekin uning asosiy xususiyati o'quvchiligi emas, tarjimonligi va undan ham muhimi, ijodkorligi. Biz hammamiz, avvalo, o'quvchimiz. Lekin o'quvchilik bu - ishning boshlanishi, xolos. Tarjimon o'z ona tilida yangi matn yaratadi. Har bir aloqa yoki asl xabarning amaliy qimmatini mavjud. Tarjimon xabarning dalillar bayonoti, taklif, buyruq yoki hazil ekanini bilishi lozim.

Misol uchun "Men bilmayman" ("I don't know") faqatgina bayonot kabi tarjima qilinmaydi, balki ikkilanish ("Ko'ramiz") degan ma'nosini ham berishi mumkin. "What gives" - Amerika shevasida "Ishlar qalay" degan savol mazmunini beradi. Bu

¹ . Bassnett - McGuire, S.. Translation Studies, Methuen, London and New York, 1980.

tarjima xabari lingvistik va madaniy to'siqlar orqali o'tkazish jarayonidir. Madaniyat tilda o'z aksini topadi. Masalan, yaponlar odatda “yo‘q” so‘zini ishlatishmaydi. Ular “yo‘q” deyishdan qochish uchun boshqa so‘zlar yoki gaplar ishlatishadi. Agar yaponlar sizning taklifingizga: **“Men bu masalani xotinim bilan maslahatlashib ko‘rishim kerak”** deb javob qaytarsa, bu uning rad javobi bo‘ladi. Agar yapon vakiliga qo‘ng‘iroq qilib soat 6 da ko‘rishishni aytsangiz va u: **“Ha, soat oltida deng?”** deb javob qaytarsa, tushuningki, sizning taklifingizga rozi emas.

Bugungi kunda tarjima dunyosida badiiy tarjimaning o‘rni beqiyos. Badiiy tarjimani ilmiy tavsiflash shundan iboratki, bunda so‘zni so‘z bilan emas, balki ma‘noni ma‘no bilan, ohangni ohang bilan, obrazni obraz bilan, yumorni yumor bilan berish muhim ahamiyatga egadir. Tarjimonlar o‘zga milliy adabiyotlarda mavjud bo‘lgan eng sara, katta ijtimoiy, adabiy-estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan kitoblarni o‘z tillariga o‘g‘rishga oshiqadilar. Badiiy tarjima nasriy va she‘riy tarjima turlariga bo‘linadi. Badiiy tarjimaning boshqa turlariga qaraganda she‘riy tarjima “ko‘proq” san‘atdir. She‘riy tarjima badiiy tarjimaning oliy navi desa bo‘ladi. Nasriy asarlar tarjimasiga yozuvchilardan tashqari professional tarjimonlar ham jur‘at etadilar. Ammo she‘riy tarjima – bu aksariyat shoirlar, shoir-tarjimonlar ishidir. To‘g‘ri, ahyon-ahyonda ilgari nasriy asarlar tarjimasiga bilan tanilgan tarjimonlar yoxud olimlar ham nazm tarjimasiga qo‘l urganlar.

Masalan, atoqli turkolog olim Sergey Nikolaevich Ivanov Alisher Navoiyning “Lisonut-tayr” dostonini qadimgi o‘zbek tilidan ruschaga tarjima qildi. Atoqli yozuvchi Oybek A.S.Pushkinning “Evgeniy Onegin” she‘riy romanini o‘zbek tiliga o‘girdilar.

Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”sidan uch jildi Hamid G‘ulom, Shoislom Shomuhammedov, Jumaniyoz Jabborov, Nazarmat tarjimasiga tufayli xalqimizning qo‘liga tegdi. Lekin baribir she‘riy tarjima turi boshqa turlarga qaraganda ancha murakkab hisoblanadi. Badiiy matnlarni tarjima qilishda eng qiyin muammolardan biri bu xalqlar madaniyati o‘rtasidagi farqni kitobxonga yetkazib berish sanaladi. Tarjima jarayonida tarjimondan bir millatga doir xususiyatlarni boshqa tilda berishda katta mahorat va so‘z boyligi talab qilinadi. Badiiy tarjimaning yana bir asosiy muammolaridan biri asl asarga sodiq qolish va asar asliyatidan olinuvchi his-tuyg‘u va kechinmalarni tarjimani o‘quvchi kitobxonga aynan yetkazish, shakl va mazmun birligini saqlab qolish sanaladi. Bu she‘riy asar tarjimasida ayniqsa qiyin va dolzarb hisoblanadi. Bir qarashda bunday ko‘rinmas-da, tarjimaning bu sohasi juda murakkab va badiiy tarjimonga juda ko‘p qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

✚ **Ritorik vositalar va so‘z o‘yinlari.** Ular she‘riyatda ko‘proq uchraydi, lekin har qanday matnda uchrashi mumkin. Ba’zida tarjima tilida haqiqiy ekvivalent mavjud emas va shuning uchun tarjimon eng yaxshi alternativani topa bilishi kerak.

✚ **Atoqli otlar.** Joylar yoki odamlarning nomlari ba’zan asl tilda biror narsani anglatishi va alohida ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bunday holda, tarjimon nomlarni tarjima qilish yoki tarjima qilmaslik haqida o‘ylashi kerak.

✚ **Terminologiya.** Ilmiy fantastika kabi ba'zi janrlarda tarjimon asarni tushunish va to'g'ri tarjima qilish uchun bilishi kerak bo'lgan juda aniq va murakkab terminologiyadan foydalanadi. Bu o'rinda sohaga oid atamalarni bilishning ahamiyati yaqqol yuzaga chiqadi.

✚ **Lisoniy farqlar.** Asliyat matni bilan tarjima matni o'rtasidagi lisoniy farqlar qiyoslanayotgan har ikki tilning barcha sathlar bo'yicha o'zaro muvofiq emasligi bilan belgilanadi.

Ko'pincha bunday farqlar mazmun sathida emas, asosan ifoda shakli sathida ko'zga tashlanadi. Ammo bu matn mazmuniy mundariyasi unsurlari bir-biriga aynan mos keladi, degani emas. Chunki kommunikantlar tag bilimi bilan bog'liq anglashiladigan mantiqiy-ma'naviy axborotlarni ham o'z ichiga oladi.

Misol tariqasida **“Tokchada turgan yettinchi lampa shamolning sovuq nafasidan lip etib o'chib qoldi. Hujraga og'ir sukunat cho'kdi”**².

Ushbu kontekstda **“yettinchi lampa”** deganda, lampaning soni emas, balki arzon, ko'p kerosin sarflamaydigan lampa nazarda tutilgan. Shu bilan birga matnda kelgan **“hujra”** so'zi ham shinamgina xona tariqasida emas, balki kambag'al oilalarda bo'lgan kichik-kichik bo'lmalar nazarda tutilgan. Bunday so'zlarga e'tibor bermaslik matn mazmuni va ta'sirchanligining susayishiga olib keladi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda asliyat matnlarni tarjima qilishda asosan telefon yoki kompyuter kommunikatsiyalarining o'zni ham kundankunga ortib bormoqda.

Ayrim so'zlar, jumlar va butun iboralarni atomatik tarjima qilish bo'yicha onlayn xizmatlar ham mavjud (masalan, Google Translate), ular odamlar tomonidan individual iboralarni tarjima qilish haqidagi statistik ma'lumotlarga asoslangan. Shunday bo'lsa-da, ularning funksiyalari ma'no g'alizligiga yo'l qo'ymasdan tarjima qilish talablariga yetarlicha javob bermaydi.

Yuqoridagilarning barchasidan shuni xulosa qilish mumkinki, badiiy asarlarni tarjima qilishda tarjimonlar oldida qator murakkab muammo va masalalar turgan bo'lsa-da, to'g'ri yondashuvlar, usullar orqali **“ko'p narsani qurbon qilmasdan”** manba tilda uzatilgan ma'noning mohiyatini kitobxonga chiroyli tarzda yetkazib, samarali tarjimaga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'afurov I, Mo'minov O, Qambarov N. *Tarjima nazariyasi*. Darslik, “Tafakur bo'stoni” - Toshkent, 2012. 25-26-betlar
2. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): учебник для ин-тов и фак. иностр. яз. Москва: Высш. шк., 1990.
3. Omonova M.Sh. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. O'quv qo'llanma, “Zebo Prints” - Toshkent, 2023. 19-bet
4. Sirojiddinov Sh, Odilova G. *Badiiy tarjima asoslari*. Monografiya “Mumtoz so'z” - Toshkent, 2011. 16-bet

² Hoshimov, O'. (2013). Ikki eshik orasi. Roman